IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: AP02772210

29-iyun 2026-jıl.
01-10-54-sanlı

«TASTÍYÍQLAYMAN»
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vaziri A.Ayapov

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini joriy etish bo‘yicha 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI”

Asos: O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2026-yil 26-maydagi 33-son bayonnomasi 1-ilovasi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1	Vazirlik hamda uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi samarali profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish, shuningdek, korrupsiyaga eng yuqori xavf tug‘diradigan yo‘nalishlar, jarayonlar va funksiyalarni aniqlash va ular bo‘yicha oldini olish choralarini ishlab chiqish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy tadbirlarni o‘tkazish: – ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni korrupsion moyillik va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha o‘rganish; – tizim tashkilotlarida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qilish va umumlashtirish; – sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi va bunday muhitni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uchun xodimlar va aholi o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali anonim so‘rovnomalar o‘tkazish; – maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi barcha ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari, o‘qituvchi va tarbiyachilarni ishga qabul qilish tizimini bosqichma-bosqich onlayn tanlov shakliga o‘tkazish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqib, Milliy kengashga taklif kiritish; – korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik va odob- axloq qoidalariga rioya etish bo‘yicha xodimlar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazish va tushuntirish ishlari olib borish.	2026-2027-yillarda har yil yakuni bo‘yicha har chorak yakuni bo‘yicha	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat sho‘basi **(Sh.Babanazarova)** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi **(R.Kuandikov),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
2	Korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida maktabgacha va maktab ta’limi sohasida jamoatchilik nazorati	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini barcha hududiy boshqarmalar va tasarrufidagi tashkilotlarga tatbiq etish.	2026-yil oktabr tasdiqlangan reja asosida	Jamoatchilik kengashi kotibi, Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	mexanizmlarini yanada kuchaytirish.	Bunda: Jamoatchilik kengashi a’zolari soni, sifat tarkibi (ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini) tegishli qonunchilik me’yorlariga rioya qilgan holda, ochiq va shaffof tarzda tashkil etish; jamoatchilik nazorati davomida aniqlangan holatlar bo‘yicha tizim tashkilotlari mansabdor shaxslarining reytingini va KPI orqali baholab borish tartibini joriy etish; ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari bo‘yicha jamoatchilik kengashi xulosasini olish tartibini yo‘lga qo‘yish; vazirlik hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining jamoatchilik kengashi hamkorligida sohaga doir ishlar yuzasidan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish.		tashkilotlari
3	2026-2027-yillarda maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish.	1. Ta’lim tizimini boshqarish, ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda, korrupsiya darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi va jamoatchilik o‘rtasida keng muhokamaga sabab bo‘lgan qonunchilik hujjatlari birinchi navbatda ko‘rish. 2. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha to‘ldirilgan cheklist hamda aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni Adliya vazirligiga kiritish. 3. Qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish. o‘z kuchini yo‘qotgan deb topiladigan hujjatlar bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish, kelishish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 30-iyun tasdiqlangan reja asosida	Yuridik sho‘basi **(S.Atamuratov),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
4	Korrupsiyaga qarshi	1. Ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va o‘quvchilari	2026-2027-	Ta’lim tashkilotlarida

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	kurashish sohasida innovatsion g‘oyalar va “Halollik vaksinasi” tamoyili asosida maktabgacha va maktab ta’limi tarbiyalanuvchilari va o‘quvchilarida vijdonlilik va halollikni, shuningdek, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish.	uchun Virtual akademiyada tashkil etiladigan maxsus dasturlar va kontentni qayta ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Muntazam ravishda ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va o‘quvchilari uchun maxsus dasturlar va kontentning yangilab borilishini ta’minlash. 3. Barcha ta’lim muassasalarida tasdiqlangan dastur va kontent asosida ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etish.	yil iyun doimiy o‘quv yili davomida	tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘limi **(R.Tanirbergenov),** O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo‘limi **(M.Toremuratov),** Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi **(Z.Erejepova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
5	Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturini maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida ijrosini ta’minlash.	1. Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida GRACE dasturni ijrosini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan koordinator belgilash hamda har oyda yakuni bo‘yicha ularning faoliyatini nazorat qilish va aniq mezonlar asosida baholab borilishini yo‘lga qo‘yish. 2. Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchi va tarbiyachilarning malakasini oshirish. 3.Umumta’lim muassasalarida “Profilaktika kunlari"va “Kelajak soat”lari doirasida “Halollik qadriyatlari", “To‘g‘rilik, mehnatsevarlik xotirjam hayot asosi”, “Korrupsiya — davlatni yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illat” mavzularida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish. 4. Umumta’lim muassasalarida "O‘quvchi yoshlar halollik tarafdori"mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish. 5. O‘quvchilarda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik his-tuyg‘ularini shakllantirish, shuningdek, mustahkam “immunitet”ga ega shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan	2026-yil 30-iyun 2026-yil 30-noyabr 2026-yil 31-dekabr 2026- yil 31-dekabr 2026-yil	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘limi **(R.Tanirbergenov),** Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		“Halollik” to‘garaklari faoliyati samaradorligini oshirish.	31-dekabr	
6	Maktablarda “Tarbiya” fani doirasida o‘quvchilarga halollik, birovni haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borish.	1. O‘quvchi-yoshlarni sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yosh avlod etib tarbiyalash. Bunda “Tarbiya” fani doirasida o‘quvchilarga halollik, birovni haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borish bo‘yicha zarur choralar ko‘rib borish. 2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Sinf soat”lari doirasida “Halollik qadriyatlari”, “To‘g‘rilik, mehnatsevarlik xotirjam hayot asosi”, “Korrupsiya – davlatni yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illat” mavzularida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish. 3. #Stop_korrupsiya heshtegi ostida oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chellenjlar tashkil etish hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda yoritish.	2026-2027-o‘quv yilllari davomida 2026-yil 30-iyun 2026-yil 30-iyun	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo‘limi **(M.Toremuratov),** Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limi **(R.Tanirbergenov),** Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim muassasalari, Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
7	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni masofadan turib oshirish.	1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga oid bilim va kasbiy mahoratlarini oshirish uchun masofaviy maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish bo‘yicha tasdiqlangan reja-grafik asosida xodimlarni “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi orqali o‘qitish. 2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga oid bilim va kasbiy mahoratlarini oshirish uchun masofaviy maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish bo‘yicha 2027-yil uchun reja-grafik tasdiqlash va ijrosini amalga oshirish. 3. Vazirlik tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ixtisoslashtirilgan o‘quv kontentlarini ishlab chiqish va Virtual akademiyaga joylashtirish orqali xodimlarning malakasini oshirib borish.	2026-yil oktabr-dekabr reja-grafik asosida 2026-yil dekabr reja-grafik asosida 2026-yil sentabr-noyabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi **(R.Kuandikov),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
8	Tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiya holatlarining oldini olish va o‘z	1. Har bir ta’lim tashkilotlari korrupsiya holatlarini aniqlash borasida ochiq yoki anonim tarzda, vazirlikning rasmiy messenjeri yoki ijtimoiy tarmoqlarda ochilgan maxsus	2026-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi

YPG0452

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	vaqtida aniqlash maqsadida aholi, jumladan ota-onalar o‘rtasida turli shakldagi ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazib borish hamda to‘plangan ma’lumotlar tahlili asosida tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish.	kanallar va aloqa vositalari orqali xodimlar, ota-onalar va aholi o‘rtasida so‘rovnomalar tashkil etish. 2. So‘rovnomalar natijalarini tahlil etish va korrupsiya xavflari saqlanib qolayotgan yo‘nalishlarda korrupsiyani minimallashtirishga qaratilgan tizimli, aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. 3. Tuman (shahar)lar bo‘limlari, tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlariga ishni to‘g‘ri tashkil etish va faoliyatda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha yozma ko‘rsatmalar kiritib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	Tasdiqlangan reja asosida doimiy ravishda	**(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
9	Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni rasmiy veb-saytlarga joylashtirib borish.	Bo‘sh ish o‘rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlik, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rasmiy veb-saytlarga joylashtirib borish.	Har oyda	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi **(R.Kuandikov),** Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
10	Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida korrupsiyaga moyil soha va yo‘nalishlarni va xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni oldini olish choralarini ko‘rish.	Quyidagilarni ishlab chiqish. korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi; korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur; korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati; korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri.	Har yili I-chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
11	Yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishida ishlayotgan holatlarni aniqlash va qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1. Faoliyatga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o‘tkazish hamda ularga rioya qilinishi holatini o‘rganish. 2. Yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish. 3. Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini	Har yili I-chorakda doimiu	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bolimi **(R.Kuandikov),**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		ko‘rish.		Vazirlikning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlari
12	O‘rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarni aniqlash va qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1. Faoliyatga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o‘tkazish hamda ularga rioya qilinishi holatini o‘rganish. 2. O‘rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish. 3. Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Har yili I-chorakda doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi **(R.Kuandikov),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
13	Xodimlarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash va ushbu holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1. Faoliyatga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o‘tkazish hamda ularga rioya qilinishi holatini o‘rganish. 2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish. 3. Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Har yili I-chorakda doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boslimi **(R.Kuandikov),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
14	Xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish va aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1. To‘ldirilgan deklaratsiyalar bo‘yicha dastlabki o‘rganish, tahlil qilish va qayta ishlashni amalga oshirish. 2. Deklaratsiya to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilganligi hamda unda aniq yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumot bor yoki yo‘qligiga aniqlik kiritish ishlari bajarish. 3. Ilgari taqdim etilgan ma’lumotlarga nisbatan o‘zgarishlarni tahlil qilish. 4. Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning, yaqin qarindoshlarining ro‘yxatini va ular	Har yili I-chorakda doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi **(R.Kuandikov),** Vazirlikning tuman

YPG0452

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish.		(shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
15	Maktabgacha va maktab ta’limiga oid qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan materiallarni veb-saytga joylashtirish orqali xodimlar va aholiga yetkazish.	1. Sohaga oid qonunchilik hujjatlari va islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot materiallarini elektron shaklda vertikal va gorizontal usulda yuborish. 2. Vazirlikdan eng quyi tizimiga qadar mazkur sohadagi faoliyatini monitoring qilish. 3. Mavjud muammolar, qonunchilikdagi bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni qabul qilish. 4. Veb-saytdan foydalanish tartibini tushuntirish bo‘yicha xodimlar va aholi uchun seminarlar o‘tkazish.	2026-yil sentabr doimiy	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tarkibiy bo‘linmalari, Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
16	“Maktabgacha va maktab ta’limi sohasi korrupsiyadan holi” mavzusini tegishli ko‘rsatuv va eshittirishlarda yoritib borish, bunda sohaga oid tartib-taomillar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida yetakchi mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish.	1. Media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash, uni amalga oshirish. 2. Ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilish va davra suhbatlari o‘tkazish.	Media reja asosida	Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva),** Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova,)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
17	Vazirlik, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda uslubiy ko‘maklashish.	1. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha vazirlik, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun malakali ekspertlarni jalb qilgan holda o‘quv-seminarlar tashkil qilish; 2. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrini to‘g‘ri yuritishga ko‘maklashish.	2026-yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova,)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
18	Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarga menejerlik sertifikatini berish	1. Davlat xizmatini joriy etish bo‘yicha loyiha texnik hujjatlarini tasdiqlash. 2. Xizmatni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida	2026-yil iyul 2026-yil	Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish sho‘basi **(B.Tleuov)**

YPG0452

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	davlat xizmatini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etish.	joriy etish.	iyul	
19	Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” tadbirlarini o‘tkazish.	1.“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” tadbirlari rejasini ishlab chiqish va buyruq loyihasini tayyorlash hamda tasdiqqa kiritish. 2.Tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish, shu jumladan huquqiy treninglar, seminarlar va targ‘ibot ishlari. 3.Tadbirlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirilgan ma’lumotlarni tegishli tartibda taqdim etish.	2026-2027 yillar alohida reja asosida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
20	Tizimda “9-dekabr xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” doirasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini o‘tkazish va yoritish.	1.“ Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari rejasini ishlab chiqish va buyruq loyihasini tayyorlash hamda tasdiqqa kiritish. 2. Vazirlik faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorlikni kuchaytirish hamda jurnalistlar, blogerlar va fuqarolarning savollariga bevosita javob berish imkoniyatini yaratish.	2026-2027 yillar dekabr alohida reja asosida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
21	Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari va muassasalari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi reytingini joriy qilish.	Maktabgacha va maktab ta’limi hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari kesimida korrupsiyaga qarshi reyting tizimini ishlab chiqish va har yarim yilda hamda “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” doirasida baholab borish.	2026-yil 30-oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
22	Vazir, vazir o‘rinbosarlari va hududiy hamda tizim tashkilotlari rahbarlari va ular	Rahbar xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha munosabatini hamda yig‘ilishlarini OAV, ijtimoiy tarmoqlarda yoritish va vazirlikning rasmiy veb-saytiga	2026-yil IV-chorak	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	o‘rinbosarlarining korrupsiyaga qarshi munosabatini e’lon qilish, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilish.	joylashtirish.		**(Sh.Babanazarova),** Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
23	Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish.	1. Yuzaga kelayotgan korrupsiyaviy holatlarni o‘rganish va tahlil qilish. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ilg‘or tajribani o‘rganish. 3. Korrupsiyaviy holatlarning xavfini kamay-tirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta’minlash. 4. Vazirlik tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda alohida shtat birliklari asosida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (“komplaens-nazorat”) faoliyatini samarali tashkil etish. Bunda, ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining sonini belgilashda tashkilotning umumiy hajmi, faoliyat yuritadigan xodimlar soni va ular duch keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi hamda xizmatdagi yakuniy ish yuklamalarini inobatga olish. 5. Hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmalarining faoliyati vazirlik tomonidan muvofiqlashtirilishini nazarda tutuvchi tizimni yo‘lga qo‘yish.	2026-yil noyabr doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
24	Ta’lim muassasalari tomonidan tashkil etiladigan tender va davlat xaridlari jarayonlarida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ hujjatlarga qat’iy rioya qilish.	1. Sohada davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish dasturini tasdiqlash.	Doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)**
		2. Markazlashtirilgan xaridlar ochiq manbalarda e’lon	Doimiy	Buxgalteriya hisobi va

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		joylashtirish.		davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
		3. Ixtiyoriy ravishda kelib tushgan takliflarni xarid organidan tashqari malakali mutaxassislardan iborat bo‘lgan ishchi guruh tomonidan baholash.	Doimiy	Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
25	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari to‘g‘ri tuzilganligi, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat tadbirlarini amalga oshirish.	1. Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, bo‘limlarida tanlanma asosida muassasadagi yuzaga kelayotgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini yuqoriligi kabi omillardan kelib chiqqan holda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi, xarajatlar smetasi va shtat jadvallarining to‘g‘ri tuzilishi, davlat xaridlarining amalga oshirilishi yuzasidan yillik ish rejaga asosan o‘rganishlar o‘tkazish.	2026-2027-yil dekabr	Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova)**
		2. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tahlil qilish va ijobiy tajribalarni umumlashtirib, boshqa ta’lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.	2026-yil noyabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova)**
		3. O‘tkazilgan o‘rganishlarda aniqlangan qonun buzilish holatlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarni o‘rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlari taqdim etish.	2026-2027-yil dekabr	Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova)**
26	Davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida	1. Elektron xarid portallariga joylashtirilayotgan xarid parametrlarini masofadan turib doimiy tahlil qilib borish va	2026-2027-yillarda	Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi

YPG0452

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	belgilangan talablarga rioya etilishini hamda xarid komissiyalari faoliyatini o‘rganish.	noto‘g‘ri kiritilgan parametrlar (qimmat narx, tovar va xizmatlarning parametrlarini noto‘g‘ri belgilash) bo‘yicha xarid jarayoniga tuzatishlar kiritishni ta’minlash. 2. Tegishliligi bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi hamda uning hududiy tuzilmalari tomonidan xarid qilish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi, kontragentlarni, narx monitoringini o‘rganib chiqish.		**(V.Sadirova)** Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat boshqarmasi **(Sh.Babanazarova)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
27	Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida alohida moliyaviy huquqbuzarlik hamda yashirin iqtisodiyotga toqatsizlik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan quyidagi tushuntirish-targ‘ibot tadbirlarini tizimli amalga oshirish.	1. Banner, plakat va innovatsion axborot-targ‘ibot materiallaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish; 2. Maktab o‘quvchilari va talabalar o‘rtasida “Moliyaviy savodxonlik” bo‘yicha olimpiadalarni har yili o‘tkazish; 3. Sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi va bunday muhitni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uchun xodimlar va aholi o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali anonim so‘rovnomalar o‘tkazish; 4. Amalga oshirilgan tadbirlar yuzasidan doimiy ravishda keng jamoatchilikni xabardor qilib borish.	2026-2027-yillar iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari Respublika Ta‘lim markazi markazi **(N.Matlatipova),** Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Axborot xizmati **(P.Urazaliyeva),** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari
29	Davlat xaridlarida dabdabaga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida import mebel va ofis jihozlari xaridini cheklash.	Budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan import mebel va ofis jihozlari xaridlarini amalga oshirmaslik ustidan qat’iy monitoring o‘rnatish.	2026-2027 yillar	Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho‘basi **(V.Sadirova)** Jamoatchilik kengashi kotibi, Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
				tashkilotlari
30	Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari faoliyati samaradorligini oshirish.	1. Ichki audit xizmati tomonidan nazorat tadbirlarini risklarga asoslangan holda rejalashtirishni tashkil etish. 2. Nazorat tadbirlarini belgilangan standartlar asosida o‘tkazilishini ta’minlash, bunda samaradorlik auditining ulushini bosqichma-bosqich oshirish. 3. Risklar bilan ishlashdagi mavjud muammolar va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish.	Doimiy 2026-2027 yillar 2026-yil noyabr	Ichki audit departamenti **bilan hamkorlikda** Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo‘limi **(Sh.Babanazarova)** Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va tizim tashkilotlari

YPG0452